



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**

## MUROJAAT SHAKLLARINING SEMANTIK KENGAYISHI VA TORAYISHI MASALASI

### SEMANTIC EXPANSION AND RESTRICTION IN ADDRESS FORMS

**Abruyeva Zaxro Shokir qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: [zaxroabruyeva99@gmail.com](mailto:zaxroabruyeva99@gmail.com)

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./ILSN2226](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./ILSN2226)

**Annotatsiya.** *Ushbu ilmiy tadqiqotda o‘zbek tilidagi murojaat shakllarining semantikasi, nutqdagi ahamiyati, tarixan kelib chiqishi, semantik kengayishi, semantik torayishi, leksemaning morfemalashuvi hodisasining murojaat shakllari tizimidagi o‘rni xususida fikr yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *semantika, semantik kengayish, semantik torayish, leksema, morfema, ijtimoiy maqom.*

**Annotation.** *This scientific study examines the semantics of address forms in the Uzbek language, their significance in speech, historical origins, semantic expansion, semantic narrowing, and the role of morphemization of lexeme in the system of address forms.*

**Keywords:** *semantics, semantic expansion, semantic narrowing, lexeme, morpheme, social status.*

Murojaat shakllari muloqot jarayonida murojaat qilish, chorlov uchun qo‘llanadigan so‘z va iboralar bo‘lib, so‘zlovchining o‘z suhbatdoshiga qiladigan ishora yoki yo‘naltirishini bildiradi [Braun, 1998: 10]. Ko‘pincha ular adresatni nomlaydi, lekin har doim ham emas: chunki ularning lug‘aviy ma‘nosi ba‘zan adresat xususiyatlariga mos kelmasligi, hatto zid bo‘lishi mumkin.

Ko‘p tillarda murojaat shakllari asosan 3 so‘z turkumida jamlanadi:

1. Olmosh (pronominal birliklar).
2. Ot va olmoshdan boshqa so‘z turkumlari (anominal birliklar).
3. Ot (nominal birliklar) va ularga sintaktik bog‘langan qo‘shimcha birliklar.

Tilning tarixiy taraqqiyoti natijasida til birliklari o‘zgaradi, yangilanadi va boyib boradi. Ijtimoiy hayotning o‘zgarishi til egalarining kognitiv bilim fondining yangilanishiga, rivojlanishiga yo‘l ochadi. Tildagi turli tizimlar qatorida murojaat shakllari tizimida ham shunday yangilanishlar bo‘lib, shakllarning ba‘zilarida ma‘no toraygan bo‘lsa, ba‘zilarida kengaygan, ayrim leksemalar morfema

vazifasiga o'tgan, til sathidan chiqib ketgan shakllar ham yo'q emas. Ushbu mulohazalarning tasdig'ini “begim” murojaatining tarixiy taraqqiyotini tahlil qilish asnosida ko'rib chiqamiz.

Tarixan *begim* murojaati bugungidan farq qiluvchi semalarni ifodalagan va odamlar undan quyidagi murojaat turlarida foydalanishgan:

- 1) xonliklar hukmronligi davrida sud idoralari hukumati vakillariga murojaat qilishda foydalanilgan: – Shoshmang, bek. Meni surat chizadi, deb sizga kim aytdi?.. (P.Qodirov. Yulduzli tunlar);
- 2) shahar yoki viloyat hokimlariga murojaat qilishda: – Mazur tuting, janobi bek (P. Qodirov. Yulduzli tunlar).
- 3) oliy tabaqa vakillari, yuqori sinfga mansub shaxslarga murojaat qilganda hurmat ma'nosida: – Meni eslay olasizmi, bek? (A. Qodiriy. O'tkan kunlar);
- 4) yuqori lavozimdagi odamlarning farzandlariga murojaat qilishda: – Bizni kechirasiz, bek aka! (A. Qodiriy. O'tkan kunlar); – O'zingizni tag'ofilga solmang, bek yigit, – dedi qushbegi (A.Qodiriy. O'tkan kunlar);
- 5) xizmatchilar ish beruvchilarga murojaat qilganda: – Endi kuyovlik muborak bo'lsin, begim? (A.Qodiriy. O'tkan kunlar);
- 6) yuqori lavozimdagi odamlarning xotinlari erlariga murojaat qilganda: – Oyi... dada... – so'ngra, – begim, – deb ingradi... Erining yuzini yuziga qo'ydi, Uyalgansumon ko'zini yumdi... (A.Qodiriy. O'tkan kunlar) [Qodirova, 2021: 20].

Misollar shuni ko'rsatadiki, **bek** so'zi asosan erkaklarga murojaat qilishda foydalanilgan, ammo bu murojaat ayol jinsiga mansub shaxslarga nisbatan ham ishlatilgan: *beklarbegi (beklar begi), beka, bek oyi (bek oyim, begoyim), bek buvi, bek xonim, bek opa, bek qizi, begim, bek xola*. Bu unvon bilan atalgan ayollar bek oilasiga mansubligini anglatgan. Mas.: – Sevinchi bering, bek buvi, kennoyim keldila! (A. Qodiriy, O'tkan kunlar).

Beklar begi (beklarbegi), bek oyim (begoyim) – bekning onasi yoki xotini va ularga murojaat shakli. Hasanali tanitdi: – Mana bu kishi qayin onangiz – bek oyim bo'ladilar. (A. Qodiriy. O'tkan kunlar). Bek so'zidan yasalgan begim (bek+im) erkak va yuqori sinf oilalaridagi ayollarga murojaat shakli sanalgan: – Iloho Rustamday o'g'il ko'ring, begim!.. (P. Qodirov. Yulduzli tunlar). Bugungi kunda esa ayollar tomonidan oila boshlig'iga nisbatan murojaat qilishda qo'llanadi. Mazkur murojaatning tarixiy qo'llanishi zamirida amaldorlar, beklik mansabiga mansub kishilarga murojaat ma'nosi yotgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan hokimiyat, davlat boshqaruv apparatlari tizimining yangilanishi, o'rta asrlar davri, shuningdek, o'tgan asrlarga xos bo'lgan ijtimoiy tabaqalanish, sinfiy bo'linishning tugatilishi natijasi o'laroq, konseptga xos mazmun arxaiklashdi va uning apellyativ vazifasi o'zgarib

ayollarning eriga murojaati sifatida ya'ni erkalovchi murojaat shakli sifatida saqlanib qoldi.

Mumtoz adabiyotimizda ham ushbu murojaat shaklining ko'p o'rinlarda qo'llanganini va uning vazifasi hozirgidan farqli ekanini ko'rishimiz mumkin. Atoiy, Gadoiy, Alisher Navoiy g'azallarida ushbu shakl lirik qahramon tomonidan ma'shuqaga nisbatan murojaat mazmunini ifodalagan. Gadoiy o'ziga xos dunyoqarashga ega shoir, yetuk g'azalnavis. Shoirning g'azallarida oshiqlik holatlari, hijron iztirobi, betakalluf yordam shikoyat va dunyo tanqidi mazmunlari keng yoritilgan. She'rlaridan birida shoirning yorni sultonga, o'zini esa uning eshigidagi bir gadoga qiyoslashi bejiz emas. Chunki Gadoiyning lirik qahramoni Haq oshig'i, muhabbat gadosi, ishq yo'lidagi tolibdir. Shu sababli, dunyo hech kimsaga vafu qilmaydi, agar o'zingni sulton sanasang ham, ahvolimdan bir bora xabar ol, deya shunday yozadi:

*Begim, dunyo vafosizdur, g'animat tut (ush)bu damni  
Gado, ahvolindin so'rg'il biror, har necha sultonsen.*

Baytda dunyoning vafosizligi yorning vafosizligi bilan parallel tarzda talqin qilinmoqda. Shu sababli, lirik qahramon ma'shuqaga murojaat qilib, sulton bo'lsang ham, gadoning holidan, ahvolidan xabar olgin, deb uqtiradi.

Atoiy lirikasida ham lirik qahramon oshiq sifatida gavdalanadi va o'zini yordan quyida tasavvur qilish orqali yorning ijtimoiy mavqeyini ko'taradi, sultonga tenglashtiradi va begim deya murojaat qiladi:

*Xasta ko'nglumdin xayoling bir zamon ketmas, begim,  
Nechakim, vasling etakiga qo'lum yetmas, begim.  
Netayin, darmonda bo'ldum men bu ko'nglum ilkida,  
Sensizin hech yerda bir lahza qaror etmas, begim.*

Alisher Navoiy ham Atoiy va Gadoiy an'anasini davom ettirgan holda yorning ulug'vorligini, yetish mushkul bo'lgan tilsimligini begim murojaatini qo'llash orqali ta'kidlaydi:

*Chun pari-yu hurdur oting, begim,  
Sur'at ichra dev erur oting, begim,  
Har xadangikim, ulus andin qochar,  
Notavon jonim sari oting, begim.*

Leksema tarixiy taraqqiyot natijasida morfemaga aylanib borishi, morfema esa so'zning o'zagiga singib ketishi mumkin [Sayfullayeva, 2020: 144]. Masalan, begim murojaati tarixiy taraqqiyot natijasida ikkiga ajralgan. Bir ma'nosida “ismga qo'shilib, shaxsning ijtimoiy mansubligini ifodalovchi” morfemaga aylanib ketgan, leksemalikdan marhum bo'lgan. Ushbu g'azalnavis ijodkorlardan farqli o'laroq,

Bobur asarlarida begim so'zi leksemalik mavqeyini yo'qotib, ayollar ismiga qo'shiladigan, ijtimoiy mavqega mansublikni ifodalovchi morfemaga aylanganini, beklarga, hukmdorlarga esa “sulton”, “hazrat” kabi murojaaaatlar qo'llanganini ko'ramiz.

*Yana bir qiz Mehrbonubegim erdi. Nosir mirzo bila bir tuqq'on erdi, mendin ikki yosh ulug' erdi.*

*Yana bir qiz Shahrbonubegim erdi, bu dag'i Nosir mirzo bila bir tuqq'on erdi, mendin sekkiz yosh kichik edi.*

*Yana bir qiz Yodgor Sultonbegim edi, onasi Og'a sulton otliq g'unchachi edi. Yana bir qiz Ruqiya Sultonbegim edi, onasi Maxdum Sultonbegim edi, Qorako'z begim derlar edi, ikkalasi mirzoning favtidin so'ng bo'ldilar. Yodgor Sultonbegimni mening ulug' onam Esan Davlatbegim saxlab edi. Andijon va Axsini Shayboniyxon olg'onda Yodgor Sultonbegim Hamza Sultonning Abdullatif Sulton otliq o'g'lig'a tushub edi. Men Hamza Sulton boshliq Sultonlarni Xatlon viloyatida bosib, Hisorni olg'onida menga qotildi. Ushul fataratta Ruqiya Sultonbegim Jonibek Sultong'a tushub edi, bir-ikki o'g'li bo'ldi, turmadi. Bu fursatlarda xabar keldikim, tengri rahmatig'a boribtur [Bobur, 1960: 67].*

Tahlillardan ko'rinadiki, hamma davrda begim murojaat shaklining semantikasida erkaklarga murojaatda ham, ayollarga murojaatda ham, morfema sifatida voqelansa-da, “beklikka mansublik” semasi yetakchilik qiladi, oilaviy muloqotda er-xotin o'rtasidagi munosabatlarda ham oiladagi iyerarxiya, erkak oilaning ustuni, rahbari ekanligiga ishora qilish maqsadi faollashadi.

### Adabiyotlar:

1. Braun F. Terms of address: Problems of patterns and usage in various languages and cultures. – Berlin, New York, Amsterdam: Mouton de Gruyter, 1998. – 367 p.
2. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2020. – 462 b.
3. Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент, 1960. – 509 б.
4. Қодирова М. Турли тизимли тилларда мурожаатнинг коммуникатив-прагматик аспекти (инглиз ва ўзбек тиллари материаллари асосида). Филол. фан. фалс. д-ри... (PhD) дисс.автореферати. – Термиз, 2021. – 57 б.
5. Миртожиев М. Семасиология. – Тошкент, 2010. – 288 б.
6. Kholmanova, Z. T., & Komilova, G. R. (2021). *The role of zoonyms in the expression of axiological content. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 1–?.* <https://doi.org/10.5958/2278-4853.2021.00876.4>